

DAKRIOTSISTIT VA QURUQ KO'Z SINDROMI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

XAMDAMOV XASANBOY OZODOVICH

Urjuza ko'z kasalliklari klinikasi, oftalmolog shifokori

KOMOLIDINOV BOBUR MARUFJON O'G'LI

Fergana Medical Center klinikasi, otorinolaringolog shifokori

Dolzarbliqi. Ko'z yoshi tizimi ko'z sirtining namligini saqlash, optik tiniqlikni ta'minlash va infeksiyon omillarga qarshi himoyani bajaruvchi muhim anatomik-funksional kompleksdir. Dakriotsistitda yoshi oqimi buziladi, ko'z sirtida yallig'lanish va epitelial disfunktsiya yuzaga keladi. Dakriotsistorinostomiya (DSR) bu patologiyada yoshi yo'lini qayta tiklashning asosiy usuli hisoblanadi. Shu bilan birga, ko'plab klinik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ayrim bemorlarda DSRdan keyin quruq ko'z sindromi (QKS) simptomlari paydo bo'lishi yoki mavjud belgilar kuchayishi mumkin. Bu holat yoshi ishlab chiqarilishi va oqimining fiziologik muvozanati buzilishi bilan bog'liq bo'lib, DSRning uzoq muddatli samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, DSR va QKS o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish dolzarb klinik masalalardan biridir.

Material va usullar. Dakriotsistorinostomiya o'tkazilgan bemorlarda quruq ko'z sindromi rivojlanish chastotasini, og'irlik darajasini va ularning o'zaro patofiziologik bog'liqligini baholash Farg'ona viloyat ko'z kasalliklari shifoxonasida o'tkazildi. Jami 60 nafar surunkali dakriotsistit tashxisi bilan DSR o'tkazilgan bemorlar o'rganildi. Ulardan 30 nafari - endoskopik, 30 nafari - tashqi usulda operatsiya qilingan. Barcha bemorlarda operatsiyagacha va undan 3 oy o'tgach Schirmer testi, BUT (tear break-up time) va Ocular Surface Disease Index (OSDI) ko'rsatkichlari baholandi. Quruq ko'z sindromi OSDI \geq 20 ball bo'lgan hollarda qayd etildi.

Tadqiqot natijalari. Operatsiyagacha davrda bemorlarning 15% ida (9 nafar) engil darajadagi quruq ko'z sindromi (QKS) belgilari aniqlangan bo'lib, bu asosan

uzoq davom etgan surunkali dakriotsistit fonida ko'z yoshi plyonkasining beqarorligi va yallig'lanish jarayonlari bilan bog'liq edi.

Operatsiyadan 3 oy o'tib, quruq ko'z belgilarining dinamikasi kuzatildi. Endonazal endoskopik DSR o'tkazilgan guruhda QKS 10% (3 nafar) bemorlarda saqlanib qoldi, tashqi DSR o'tkazilgan guruhda esa bu ko'rsatkich 30% (9 nafar) bemorlarda qayd etildi ($p < 0,05$). Bu farq endoskopik usulning kam travmatikligi va fiziologik anatomiya yaxshiroq saqlanib qolishi bilan izohlanadi.

Schirmer testi natijalari endoskopik guruhda o'rtacha $12,8 \pm 2,3$ mm, tashqi usulda esa $9,4 \pm 1,8$ mm ni tashkil etdi ($p < 0,01$). Bu ko'rsatkich ko'z yoshi sekresiyasi endonazal DSRdan so'ng yaxshiroq tiklanganini ko'rsatadi.

BUT (Break-Up Time) - ya'ni ko'z yoshi plyonkasining uzilish vaqti - endoskopik usulda $8,6 \pm 1,2$ soniya, tashqi usulda esa $6,1 \pm 1,4$ soniya bo'ldi. Bu farq ham endonazal usuldan so'ng ko'z yoshi plyonkasining barqarorligi yuqoriligini tasdiqlaydi.

Kuzatishlar davomida aniqlandiki, tashqi usulda operatsiya bajarilganda, ko'z yoshi qopi atrofidagi nerv tolalari va ko'z yoshi bezining reflektor innervatsiyasi qisman shikastlanish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi. Shu sababli, tashqi DSRdan so'ng bemorlarda QKS chastotasi nisbatan yuqori bo'ldi.

Umuman olganda, endonazal endoskopik dakriotsistorinostomiya o'tkazilgan bemorlarda ko'z yoshi sekresiyasi va plyonka barqarorligi ancha yaxshiroq saqlanib qoldi. Statistika jihatdan ahamiyatli farqlar ($p < 0,05-0,01$) endoskopik usulning fiziologik afzalliklarini ko'rsatadi.

Xulosa. Dakriotsistorinostomiya nafaqat ko'z yoshi oqimini tiklaydi, balki ko'z sirtining fiziologik muvozanatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tashqi usulda bajarilgan DSRdan so'ng quruq ko'z sindromi rivojlanish xavfi endoskopik usulga nisbatan 3 baravar yuqori bo'lishi aniqlangan. Shu bois, DSR rejalashtirilayotgan bemorlarda operatsiyagacha ko'z yoshi sekresiyasini baholash, operatsiyadan keyin esa sun'iy ko'z yoshi tomchilarini qo'llash va yallig'lanishga qarshi profilaktika o'tkazish tavsiya

etiladi. Endoskopik usulning afzalligi - yoshi bezining reflektor arkasiga kamroq ta'sir qilishi, shuning uchun quruq ko'z sindromining kamroq uchrashi bilan bog'liq.